# O'ZBEKISTONDAGI TA'LIM TIZIMI

*Andijon davlat pedagogika insituti*
*Informatika va aniq fanlar kafedrasi*
*o'qituvchisi*
***O'rinboyeva Kumushoy***
*Fizika va astronomiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi*
***Abduqahhorova Sabohat***

**Annotatsiya:** Ushbu maqola o'quvchilarning bilim olish borasidagi ma'lumotlarini kengaytirish bilan bir qatorda ular o'rtasidagi ilmiy bahs munozaralarni tashkil etish va ushbu metod orqali o'quvchilarning bilim olishi uchun yanda qiziqtirish uchun tayyorlandi .

**Kalit so'zlar:** ta'lim tizimi, bilim,malaka,konikma,Fransiya ta'lim tizimi,ilg'or ta'lim.

Ta'lim tizimini o'rganishda yurtimizda katta e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizning kelajagi biz yoshlarning qo'lidadir. O'zbekistonning bugun biz yoshlarga berayotgan ta'lim-tarbiya va ko'rsatilyotgan g'amxo'rlik, e'tiborning yorqin ifodasidir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yosh avlod tarbiyasi haqida ''Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala –bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda ,dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgarmoqda . Bu o'zgarishlarni hammada hamko'proq his etadigan kim- yoshlar .Mayli , yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni vaqtda o'zligini ham unutmasin . Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz degan da'vat ularning qalbida doimo aks - sado berib o'zligig a sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan '', deb ta'kidlaganlar. Darhaqiqat, bugungi kunda bizning tarbiya olishimiz, bilim egallashimiz kelajakda O'zbekiston taraqqiyoti uchun harakat qilishimi lozim. Bizda bunga juda ko'p shart- sharoitlar , imkoniuyatlar mavjudligi bizning baxtimiz. Bugungi kunda ta'lim sahasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan . Davlatimiz rivojlanishi, yuksalishi uchun ham, ta'lim sohasidagi munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respuplikasining ''Ta'lim to'g'risida '' gi qonuni 2020-yil 23-sentabr kuni qabul qilingan . Uning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat .Mazkur qonunga asosanta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi, unda belgilangan masofaviy ta'lim haqidagi qoidalar o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim malaka va ko'nikamalarni axborot-

kommunikatsiya texnologiyalarida hamda internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan. Bu qonunda insonlarning har qanday sharoitda bilim egallashga qaratilgan. Maktablarda o'qitish tizimini takomillashtirish, bilim va ko'nikmalar hosil qilish. O'qituvchilarni malakasini oshirishga qaratilgan.

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlarmaydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohadaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'lqinlanib so'zlamaslikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: ,,Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shunda tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasida maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab - quvvatlaydi''. Yoshlarga yaratilayotgan bunday keng sharoitlardan fodalanishimiz, ota- onamiz umidlarini so'ndirmay katta yutuqlarga erishishimiz kerak.Til o'rganish borasidagi yoshlarning ishtiyoqi, qiziqishlari ortib bormoqda. Hozirda til o'rganish zamon talabi hisoblanadi. Chet tilini o'rgangan yoshlar istagan horijiy universitetlarda o'qish imkoniyatiga egadirlar. Yurtimizda o'quv markazlariga bo'lganehtiyoj juda katta .Chunki yoshlarning bunga bo'lgan talabi ham kun sayin ortib bormoqda. Xorijiy davlatlarda o'qib kelayotgan yoshlar o'sha davlatning o'qitish metodlari bilan birga , u davlatning madaniyatini ham olib kelib , o'z madaniyatimizga uyg'unlashtrmoqda .Bu esa o'z navbatida katta O'zbekiston rivojiga hissa qo'shadi . Rivojlangan davlatlardan biri Fransiya . Fransiya ta'limida bolalarning go'daklik chog'idanoq maktabda o'qitish uchuntayyor holda olib kelish g'oyat muhim masala hisoblanadi .Bu bosqichda tarbiyalanuvchilar kichik guruh (2-4 yosh) , o'rta guruh (4-5 yosh ) , katta guruh (5-6 yosh) . Maktabga tayyorlov guruhi ( 5-6 yosh) bo'lib , ulargaFransiyada 100% shu yoshdagi bolalar qamrab olgan . Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud va yaratilib kelinmoqda. Fransiyada boshlang'ich maktab bepul va majburiy . Uning vazuifasi o'qish, yozish, hisoblash malaksini berishdan iboratdir . O'quv mashg'ulotlari ertalab 9 dan 12 gacha vaqt oralig'ida , hamda soat 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi . Maktabda ovqatlanish pullik , lekin arzonlashtirilgan narxlarda . Fransiyada talabalar o'zlarining akademik shaxsiy va kasbiy maqsadlariga erishish uchun ko'plab imkoniyatlarga ega bo'lganmukammal oliy tizimi mavjud. Ta'lim marxi hamyonbop va talabalar bir qator moliyaviy

yordamdasturlaridan foydalanishlari mumkin. Fransiyada o'qish talabalarga fransuz madaniyati bilan birga tanishish , yangi tilni o'rganish va dunyoning yetakchi tadqiqitchilari va akademiklari bilan hamkorlik qilish imkonini beradi. O'zbekiston ta'lim tizimi horijiy davlatlar ta'lim tizimidan tubdan farq qiladi. Hozrda ta'lim tizimiga chet davlatlarda rivojlanib kelayotgan yangi metodikalarni O'zbekistonga olib kirish va samarali yo'lga qo'yish orqali o'quvchi yoshlarning Bilim va ko'nikmalarini oshirishda bir qancha izchil ishlar olib kelinyabdi.

Talim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarni belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarni rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizmini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. O'zbekiston Respublikasining ,,Ta'lim to'g'risida'' gi Qonuni.Toshkent, 1999-yil.
2. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-Toshkent, ,,SHarq'', 1997, 3-17-b.
3. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.-T. :O'qituvchi, 1996,192 b
4. Ishtimoiy tarmoqlar.2023.